

20__yil “__” _____dagi _____-son
Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomaga
_____ -son Qo'shimcha kelishuv

20__yil “__” _____

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi (hozirgi huquqiy vorisi O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi) tomonidan berilgan 08.09.2014 yildagi AA 0005149 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005150 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005151 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005152 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005153 sonli litsenziyalar asosida faoliyatini amalga oshiruvchi “Universal Mobile Systems” mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi “UMS” MCHJ) (keyingi o'rinlarda – “Operator”)ning 20__ yil “__” _____dagi _____sonli _____Ishonchnomasi _____asosida _____ish _____yurituvchi _____, bir tomondan hamda keyingi o'rinlarda “Abonent” deb nomlanuvchi, _____asosida ish yurituvchi _____, boshqa tomondan, birgalikda “Tomonlar”, alohida holatda esa “Tomon” deb nomlanadilar, quyidagi shartlarda Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomaga ushbu Qo'shimcha kelishuvni tuzdilar:

1. Operator Abonentning to'lovni kechiktirib to'lash haqidagi yozma arizasiga asosan Abonentning shaxsiy (elektron) hisobvaraqdagi balans salbiy bo'lgan holatda Abonentga quyidagi shartlarda Aloqa xizmatlaridan foydalanish huquqini taqdim etadi.

1.1. Operator to'lovni kechiktirib to'lash imkoniyati bilan Aloqa xizmatlaridan foydalanishning maksimal chegarasini (keyingi o'rinlarda – maksimal chegara) mustaqil ravishda belgilaydi.

1.2. Abonent quyidagi holatlarda ikki ish kunidan kechikmagan holda aloqa xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirishi shart:

a) maksimal chegaraga yetib borganida;

b) Abonent maksimal chegaraga yetmagan taqdirda, Operator tomonidan har oyning yakuni bo'yicha taqdim etiladigan to'lov qog'ozi (hisobvaraqq-faktura) asosida. To'lov qog'ozi (hisobvaraqq-faktura) pochta, jumladan elektron pochta orqali yuborilishi yoki kurer bilan qo'lga yetkazib berilishi mumkin.

1.3. Abonent ushbu Qo'shimcha kelishuvning 1.2-bandida belgilangan to'lov bo'yicha majburiyatini bajarmasa, Operator bir tomonlama tartibda ushbu Qo'shimcha kelishuvni bekor qilishga hamda Aloqa xizmatlari ko'rsatilishini to'xtatishga haqli. Abonent tomonidan qarzdorlik to'lanib, tegishli summalar Operatorning hisobraqamiga kelib tushganidan so'ng Aloqa xizmatlari ko'rsatilishini qayta tiklanadi.

2. Abonent Shartnoma va ushbu Qo'shimcha kelishuvning shartlariga muvofiq ko'rsatilgan, lekin haqi to'lanmagan Aloqa xizmatlari uchun Operator tomonidan hisoblangan barcha summalarni so'zsiz e'tirof etadi va ularni to'liq hajmda to'lab berish majburiyatini oladi.

3. Abonent Operatorga tegishli yozma bildirishnoma bilan murojaat qilish orqali ushbu Qo'shimcha kelishuvni bekor qilishga haqli. Bunda, Abonent ko'rsatilgan, ammo haqi to'lanmagan barcha Aloqa xizmatlari uchun to'liq hisob-kitobni amalga oshirishi zarur.

4. Ushbu Qo'shimcha kelishuv Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Shartnomaning amal qilish muddati davomida amal qiladi.

5. Ushbu Qo'shimcha kelishuv tomonlarning har biriga bittadan taqdim etiladigan ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa bir xil yuridik kuchga ega.

OPERATOR

“UMS” MCHJ

O'zbekiston Respublikasi, 100000,

Toshkent, Yunusobod tumani,

A.Temur shox ko'chasi, 24

STIR: 303020732

M.O'.

ABONENT

_____ (nomi)

Manzil: _____

STIR: _____

h/r: _____ bankda

MFO _____

M.O'.